

NIZOSIZ HUQUQLARNI TASDIQLASHGA OID NOTARIAL HARAKATLAR TUSHUNCHASI, HUQUQIY TABIATI VA PROSESSUAL JIHATLARI

SULTONOVA TO‘TIYOXON SAIDUMAROVNA

*yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik
universiteti mustaqil izlanuvchisi, advokat*

Notariat tashkil topgan kundan xalqaro miqyosda, jamiyatda mavjud bo‘lgan nizosiz huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi idora sifatida tan olingan. Notarial faoliyat huquq sohasining bir bo‘g‘ini hisoblanadi.

Hozirgi kunda notariat xalqaro miqyosda ikkiga ajraldi: lotin notariati va anglo-sakson notariati. Lotin notariati notariatning o‘ziga xos bo‘lgan nizosiz jihatlarini to‘laligicha o‘zida qamrab olgan mukammal tizim hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston notariati xalqaro lotin notariatining afzallik jihatlarini amaliyotga implementatsiya qilib kelmoqda.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[1] gi Farmonida belgilangan notariat institutiga oid barcha qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish muhim vazifa ekanligi qayd etib o‘tildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 maydagi “Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3741-son Qarori,[2] 2019 yil 9 sentyabr kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5816-son Farmoni, [3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat notarial faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020 yil 16 martdagi 156-sonli qarori,[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 18 noyabrdagi “Notariuslar tomonidan ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash haqida”gi 726-sonli qarori [5]ga ilova tarzda notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan besh turdagi murakkab notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi Reglament asosida belgilab berildi. Bu jarayon o‘z navbatida sohasini raqamli texnologiya asosida tizimli isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi idoralar ichida notariat o‘ziga xos o‘rin tutadi. Notariat atamasi lotincha “Notarius”so‘zidan oldingan bo‘lib “xat yozuvchi kotib” ma’nosini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasida notariat deb, **fikrimizcha**, jismoniy hamda yuridik shaxslarning nizosiz huquqlarini, hamda yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan, huquqiy

oqibatlar keltirib chiqaruvchi hujjatlarni guvohlantiruvchi va bu nizosiz huquqlar hamda nizosiz faktlarni tasdiqlash bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni amalga oshiruvchi idoralarga aytiladi.[6]

Prosessualist olim ustoz Sh.Sh.Shoraxmetov xalqaro huquq olamida tan olingan notarius so‘zi “xat yozuvchi kotib” ma’nosini anglatadi degan fikrga qo‘shilgan holda fikr bildirgan.[7] Shuningdek, o‘xshash nuqtai nazar rossiyalik huquqshunos olimlar A.V.Selyanin,[8] N.I.Avdeyenko, M.A.Kabakova, A.I. Gomolalar tomonidan ham bildirilib, notarius atamasi lotinchadan olingan bo‘lib, “xat yozuvchi kotib” ma’nosini anglatishi haqida fikr bildirganlar.[9] Notarial idoralarning o‘ziga xos bo‘lgan, boshqa ma’muriy idoralardan farq qiluvchi jihatlaridan biri nizosiz huquqiy munosabat va nizosiz huquqlarni hal etishidir.

Notarial idoralar sud muassasalaridan farq qilgan holda, nizosiz huquq va nizosiz faktlarni tasdiqlashga qaratilgan notarial harakatlarni amalga oshiradilar. Mazkur harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladilar. Notariuslar tomonidan bajariladigan notarial harakatlar ularning mazmun va mohiyatidan, jamiyatda mavjud bo‘lgan qaysi turdagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishidan kelib chiqib, huquqshunos olimlar tomonidan guruhlariga ajratilgan.

Guruhlariga ajratish huquqshunos olimlar tomonidan har xil talqin qilingan. Jumladan, K.S. Yudelson notariuslar tomonidan bajariladigan notarial harakat turlarini ularning mazmuniga ko‘ra, quyidagicha guruhlar-ga ajratadi: bitimlarni tasdiqlaydi, nizosiz holatlarni guvohlantiradi, himoya qilishga qaratilgan, mulkiy huquqlarni tasdiqlashga qaratilgan, majburiyatlarni ta’minlash, qarzdorlik majburiyatlarini bajarishga qaratilgan, nizosiz majburiyatlarni ijro etishga qaratilgan notarial harakatlardir”[10] deb ta’kidlaydi.

Bu borada fikr bildirgan Z.A.Iskandarev fuqarolik-huquqiy munosabatlarning rivojlanish bosqichiga ko‘ra, notarial harakatlarni quyidagi 4 guruhga ajratadi [11]: Huquqni tasdiqlashga qaratilgan notarial harakatlar: bitimlarni tasdiqlaydi, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish, er-xotinning umumiy ulushli mulkiga nisbatan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnomalarni tasdiqlash; keyinchalik bu jarayon V.N.Argunov[12] tomonidan yanada takomillashtirildi va bunga N.I.Avdeyenko, M.A.Kabakovalar ham qo‘shilgan.[13] A.I.Gomola, ushbu guruhga ajratishni quyidagicha talqin etadi [14]: Nizosiz huquqlarni tasdiqlashga qaratilgan notarial harakatlar ustida alohida to‘htalib ushbu toifadagi notarial harakatlar Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma va Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulkiga nisbatan Guvohnoma berishni o‘z ichiga qamrab oladi. A.B.Sarelungo notarial harakatlarni huquqiy tabiatidan kelib chiqib ularni quyidagi turlarga ajratadi [15]: a) nizosiz huquqlarni tasdiqlashga qaratilgan notarial harakatlar; b) nizosiz faktlarni

tasdiqlash va guvohlantirishga qaratilgan notarial harakatlarga ajratib huquqiy-ilmiy tahlil qilgan.

A.I.Gomola e'tirof etishicha, “notariat – nizosiz huquqiy munosabatlarni va faktlarni tasdiqlovchi, hujjatlarni guvohlantiruvchi, fuqaro va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunda ko'rsatilgan notarial harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan davlat organi tizimidagi mansabdor shaxs”[16]-dir. S.A.Tog'ayev ta'kidlashicha “notariat – nizosiz huquqlar va faktlarni mustahkamlash va tasdiqlashga qaratilgan huquqiy faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar sistemasidir”[17].

Bizning fikrimizcha, notariat deganda jismoniy va yuridik shaxslarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlaridan kelib chiqib, nizosiz bo'lgan huquqlar va faktlarni tasdiqlaydigan vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tushuniladi. N.I.Avdeyenko, M.A.Kabakova,[18] D.D.Averin, Ye.N.Kovaleva, M.G.Avdjukovlar [19] o'z asarlarida notarial idoralar faqatgina nizosiz munosabatlarni tartibga solishi haqida fikr bildirganlar.

Fikrimizcha, moddiy huquq normasi umumiy qoidasidan kelib chiqqan holda, nizosiz huquqiy munosabat va nizosiz huquq birinchidan, qonunga zid bo'lmagan munosabat, ikkinchidan, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini o'z ixtiyori, erki va kelishuvga ko'ra amalga oshirishga qaratilgan harakati, uchinchidan, shaxslarning huquqiy munosabatlarga kirishganlik holatidir.[20]

Hozirgi zamon notariatida “notariat”, “notarial faoliyat” so'zlari keng qamrovli ekanligi bilan ahamiyatlidir.[21] Jumladan : “notariat” jismoniy va yuridik shaxslarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini qonuniy asoslarda o'z vakolati doirasida himoya qiluvchi idoralar tizimi; fuqarolik huquqiy munosabatlarni ma'lum bir shaklda tatbiq qilinishini ta'minlab beruvchi, bu borada davlat bilan fuqaro o'rtasida notarial harakatlarni bajarish yo'li bilan notarial faoliyatni zarur mezonda ushlab turuvchi huquqiy institut; notarial faoliyat va uning ishtirokchilarini notarial faoliyat muhitida tutgan o'rnini o'rganish uning predmeti hisoblangan fan.[22]

Fikrimizcha, nizosiz huquqni tasdiqlashga qaratilgan notarial faoliyatning huquqiy tabiati shunda ifodalanadiki, u jamiyatda mavjud bo'lgan nizosiz huquq va nizosiz faktlarni tartibga soluvchi mezonni o'rganadi va harakatga keltiradi. Shu nuqtai nazardan notarial faoliyat zaminida moddiy huquq normasi yotadi. Har bir notarial harakat moddiy huquq normasini harakatga keltiradi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida oldi-sotdi shartnomasi, uni notarial tasdiqlash tartibi ko'rsatilgan bo'lsa, notarius ushbu notarial harakat turini bajarish bilan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida ko'rsatib o'tilgan oldi-sotdi shartnomasiga oid moddiy huquq normasini harakatga keltiradi. Nizosiz huquqlarni

tasdiqlashga oid notarial faoliyatning huquqiy tabiatini yoritishda konstitutsiyaviy normalar muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida qayd etib o‘tilgandek, “Mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi”, ushbu norma notarial faoliyatning huquqiy tabiati nizosizligini izohlaydi.

Ushbuni e‘tirof etgan holda ta’kidlashimiz joizki, huquqiy munosabatni o‘zida ifodalagan har bir notarial faoliyat avvalo jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiyada ko‘rsatilgan huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Ye.B. Tarbagayeva, G.G.Chernomykh, I.G.Chernomykhlar ushbu fikrni e‘tirof etgan holda, notarial idoralar faoliyati fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqini himoya qilishga qaratilganligidir”[23]-deb ta’kidlaydilar. M.G.Avdjukov ta’kidlaganidek, “notarius notarial harakatlarni qonuniy amalga oshirishni ta’minlash maqsadida, qonun buzilishini oldini olish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularga notarial idorada rasmiylashtirilayotgan hujjatlarning turi, huquqiy jihatlari, rasmiylashtirilish tartibi, keltirib chiqaradigan oqibati to‘g‘risida matbuotda va turli usullar bilan tushuntirish ishlarini olib borishda faol ishtirokchi bo‘lishligi ham talab etiladi”. [24]

V.V. Yarkov,[25] A.I. Gomola [26] ta’biri bilan aytganda, notarius yoki notarial harakatni bajaruvchi mansabdor shaxs, qonunga amal qilishi bilan, huquqni himoya qilishga qaratilgan notariat zimmasidagi funksiyani bajargan bo‘ladi. Nizosiz huquqlarni tasdiqlashga qaratilgan va boshqa notarial harakat turlarini amalga oshirishning huquqiy tabiati shu bilan ifodalanadiki, notariuslar o‘zlarining tashabbusi bilan notarial harakatlarni bajarishlari qonun bilan taqiqlanadi, mazkur huquqiy holat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27- moddasida “har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega”[27] degan huquqiy normada o‘z ifodasini topganligi bilan izohlanadi. M.G.Avdjukov ta’kidlagandek, “qonun, notariusga va notarial harakatni bajaruvchi boshqa mansabdor shaxslarga o‘z tashabbusi bilan notarial harakatni bajarishni taqiqlaydi”[28]

Ta’kidlash joizki, notarial faoliyat negizida nizosiz huquqiy munosabat va nizosiz faktlar yotadi. Soha olimlari tomonidan nizosiz huquqlarni tasdiqlashga oid notarial harakatlar tushunchasi, notariatning huquqiy tabiati va prosessual jihatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy yondoshuvlar mavjud bo‘lib, shuningdek, mazkur ilmiy ishlar notariat sohasi alohida tizim ekanligini ochib berganligi bilan muhim sanaladi. [29]

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon taraqqiyotida jismoniy va yuridik shaxslarning qonun bilan qo‘riqlandigan huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda notarial idora kabi institutga jismoniy va yuridik shaxslarning doimiy ehtiyoji borligi seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" / <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 26.05.2018 y. 07/18/3741/1272-son.
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 2019 yil, 10 sentyabr . "Халқ сўзи", 2019 йил 11 сентябр. "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами" 2019 йил 16 сентябр, 37-сон, 676-модда.
4. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2020 й., 09/20/156/0317-сон, 14.12.2020 й.,
5. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021 yil 1 apreldagi 10-mh-sonli buyrug'i (ro'xat raqami 3113-6, 01.04.2021 y.) tahririda-Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2021y., 10/21/3113-6/0266-son.
6. Султонова Т.С. Ўзбекистонда нотариал фаолият/Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Юристар малакасини ошириш маркази (Нотариуслар учун Ўқув қўлланма). –Тошкент, 2014. –88 б.
7. Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи. – Т.: Адолат, 2001. -465б.
8. Селянин А.В. Нотариат .Учебное пособие – М.:Питер, 2005 .–5с.
9. Авдеев Н.И., Кабакова М.А "Нотариат в СССР", Учебное пособие для ВУЗов .Ленинград:1984. –14с. Гомола А.И. "Нотариат" Учебник, Москва .2008. –10 с.
- 10.Д.Д.ерин, Е.Н. Ковалева, Л.П. Смышлев, М.Г. Авдюков « Нотариат в СССР "Учебное пособие Издательство Москва-1974.-29.
- 11.Нотариат в СССР. Учебное пособие Издательство- Москва – 1974. –29 с.
- 12.Правовые основы нотариальной деятельности Издательство БЕК-Москва-1994, –2с.
- 13.Авдеев Н.И., Кабакова М.А. Нотариат в СССР" Учебное пособие, Ленинград.1984. – С. 30-33.
- 14.Гомола А.И. "Нотариат" Учебник, Москва .2008. –10 с.
- 15.Царелунго А.Б. Правовой статус нотариуса в Российской Федерации: Автореф.д.ис.... кан..юрид.наук...Москва, 2006. –20 с.
- 16.Гомола А.И "Нотариат "Москва- 2008. – 9с.
- 17.Тоғаев С.А. " Ўзбекистонда нотариат"// Ж. Ҳуқуқ ва бурч 2007, –№ 1-2 . –61 б.
- 18.Авдеев Н.И.,Кабакова М.А.,"Нотариат в СССР "Учебное пособие для ВУЗов.- Ленинград: "Юридическая литература" 1984. –206с.
- 19.Авдюков М.Г. Нотариат в СССР Учебное пособие . Издательство . "Юридическая литература" Москва – 1974. –3с.

20. Султонова Т.С. Ўзбекистонда нотариал фаолият/Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Юристлар малакасини ошириш маркази (Нотариуслар учун Ўқув қўлланма). –Тошкент, 2014. –88 б.
21. Султонова Т.С. Ўзбекистонда нотариал фаолият/Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Юристлар малакасини ошириш маркази (Нотариуслар учун Ўқув қўлланма). –Тошкент, 2014. –88 б.
22. Султонова Т.С. Ўзбекистонда нотариал фаолият/Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Юристлар малакасини ошириш маркази (Нотариуслар учун Ўқув қўлланма). –Тошкент, 2014. –88 б.
23. Нуриев.А. “К вопросу о понятие нотариального парава”// Ж Арбитражный и гражданский процесс 2007, -№6. – С. 41-43.
24. Авдюков М.Г. Принципы нотариального процессуального права. “Нотариат” Учебное пособие Москва, 1974.– 23с.
25. Ярков В.В. “Правоохранительная функция нотариата”. Настольная книга нотариуса в двух томах ,Том 1 Учебное- методическое пособие. Москва .Волтерс Клувер, 2004, –26с.
26. Гомола А.И. “Правоохранительная функция нотариата” “Нотариат” Учебник, Москва, 2008. –23с.
27. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент “Ўзбекистон”- нашриёт- Матбаа ижодий уйи, 2012. –7 б.
28. Авдюков М.Г. “Принципы нотариального процессуального права”. Нотариат. Учебное пособие Москва.1974. –25с.
29. Султонова Т.С. . Қонун бўйича меросга бўлган ҳуқуқ ҳақидаги гувоҳномани расмийлаштириш тартиби ва суд амалиёти(нотариал фаолият мисолида)//Олий суд Ахборотномаси, №2, 2013 йил, 13-16 бетлар; Гаров шартномаларига риоя қилмасликнинг ҳуқуқий оқибатлари//Адвокат журнали, №1, 2001 йил, 16-18 бетлар; Судларда нотариал ҳаракатларнинг бекор бўлишининг айрим асослари//Адвокат журнали, №3, 2002 йил, 12-15 бетлар; .Султонова Т.С.Муомала лаёқати (нотариал фаолиятга оид)//Ҳуқуқ ва бурч журнали, 4-сон, 2009 йил, 27-29 бетлар; . Нотариат тамойиллари//Ҳуқуқ ва бурч журнали, 7 сон, 2009 йил, 26-28 бетлар; Абдуллаева М. Васият бўйича ворислик ҳуқуқи//Ҳуқуқ ва бурч журнали, №5, 2009 йил, 17-19 бетлар; Хаттобов Н. Нотариал фаолият босқичлари//Ҳуқуқ ва бурч журнали, №9, 2009 йил, 27-29 бетлар; Мухамадиев А. Нотариус фаолияти:унинг ахлоқий асослари//Адвокат журнали, №3, 2016 йил, 29-31 бетлар; Майборода В.А. Развитие правоохранительной функции нотариата в сделках с земельными участками//Нотариус журнали, №6, 2015 йил, 41-43 бетлар; Ситдикова Л.Б., СтародумоваС.Ю. Нотариальные отказы: основания применения и порядок обжалования//Нотариус журнали, №8, 2015 йил, 43-44 бетлар; Брючко Т.А. Общая долевая собственность наследников//Нотариус журнали, №3, 2007 йил, 14-17 бетлар; Бегичев А.В. Сущность правозащитной деятельности нотариата в системе социальной функции государств// Нотариус журнали, №5, 2015 йил, 26-28 бетлар; Ракитина Л.Н. О нотариальных действиях, совершаемых нотариусами при подтверждении решений, принимаемых

общим собранием общества с ограниченной ответственностью//Нотариус журналы, №5, 2015 йил, 13-16 бетлар; Романовская О.В. Нотариат и юридические лица публичного права//Нотариус журналы, №5, 2015 йил, 17-21 бетлар; Касаткина А.Ю. Отстранение от наследства: судебный и нотариальный порядок//Нотариус журналы, №2, 2015 йил, 28-32 бетлар; Рудик И.Е. Вопросы участия нотариуса в отношениях по государственной регистрации прав на наследственное имущество//Нотариус журналы, №2, 2015 йил, 28-31-бетлар; Афонасенко Ю.В. Нотариальное удостоверение брачного договора//Нотариус журналы, №1, 2015 йил, 4-8 бетлар; Татаринцева Е.А. Функции нотариата в возникновении и развитии правоотношений по воспитанию детей в семье//Нотариус журналы, №1, 2015 йил, 27-31 бетлар; Иванова Ж.Б. Особенности нотариальной деятельности при удостоверении завещания//Нотариус журналы, №4, 2015 йил, 33-36 бетлар; Парникова Н.Н., Нестолий В.Г. Исполнительная надпись нотариуса//Нотариус журналы, №4, 2015 йил, 44-47 бетлар; Бакаева И.В. Нотариальная практика: удостоверение решения общего собрания участников общества с ограниченной ответственностью// Нотариус журналы, №3, 2015 йил, 3-7 бетлар; Азнаев А.М. Нотариальное удостоверение и государственная регистрация сделок с недвижимостью, возникшие противоречия нормам конституционного и гражданского права// Нотариус журналы, №4, 2007 йил, 7-10 бетлар; Кристафорова А.В. Как стать нотариусом//Нотариус журналы, №7, 2015 йил, 44-47 бетлар; Смиронов С.А. Толкование завещания: вызовы практики// Нотариус журналы, №7, 2015 йил, 11-14 бетлар; Сафонова А.А. Некоторые спорные вопросы установления нотариусом дееспособности гражданина при удостоверении завещания//Бюллетень нотариальной практики, 2015 г., №1, 39-44 стр.; Хмель К. Брачный договор: расчет или осторожность?// Бюллетень нотариальной практики, №3, 2007 г., 2-4 стр.; Матияшук С.В. Сроки для принятия наследства и последствия их пропуска (нотариальном порядке)//Бюллетень нотариальной практики, №4, 2007г.,6-10 стр.; Абраменков М.С.